

SO'ZLASHUV NUTQI SISTEMASI – ADABIY SO'ZLASHUV NUTQI SIFATIDA

Yusubjanova Feruza Qurbanovna

Farg'ona davlat universiteti, Katta o'qituvchisi

Shoxo'jayeva Feruza Mahmudxon qizi

Farg'ona davlat universiteti,Lingvistika: ingliz tili magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada so'zlashuv nutqi fonetikasi, tillarning so'zlashuv nutqi leksikasi, sintaksisi, qolaversa so'zlashuv nutqi o'ziga xos sistema ekanligi, so'zlashuv nutqi va uning funksional uslublarga munosabati masalasi tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *badiiy nutq, publitsistik nutq, sinxron plan, diaxron plan, adabiy me'yor, yozma va og'zaki so'zlashuv nuutqi, fonetik me'yor.*

Adabiy til keng ma'noda tarixan shakllangan, so`z ustalari tomonidan qayta ishlangan, sayqal berilgan, jamiyatda kishi faoliyatining barcha tarmoqlari bilan uzviy bog`langan badiiy, publitsistik, ilmiy adabiyot tilidir.

Akademik V. Vinogradov yozadi: «Adabiy til u yoki bu xalq, ba'zan xalqlarning maxsus ish hujjatlari, maktab ta'limi, kundalik yozma munosabatlari, fan, publitsistika, badiiy adabiyot, so`z ifodasidagi turli madaniy munosabatlari uchun umumiyoq bo`lgan yozma va og`zaki tildir»¹. Demak, adabiy til tushunchasi hayotning barcha jabhalari uchun xos bo`lgan xodisa sifatida anglashiladi, tushuniladi, idrok etiladi. Muhimi shundaki, adabiy tilni hamma bab-baravar qabul qilishi, ya'ni ishchimi, ziyolimi, rahbarmi kim bo`lishidan qat'iy nazar unga rioya qilgan holda foydalanishi lozim bo`ladi. Bu, shubhasiz, adabiy tilda muloqot qiluvchilar va unga rioya etuvchilar uchun asosiy vazifani bajarishga turki bo`ladi. Qolaversa, adabiy til har xil harakatdagi tushunchalar bilan ifodalananib, unda milliy xususiyatlar ham sinxron planda hamda rang-barang ma'no ifodalovchi tarixiy (diaxron) planda o`rganiladi. Bu esa adabiy tilning imkoniyati keng ekanligini ifodalaydi. Shubhasiz, adabiy tilni umumxalq tilining boshqa ko`rinishlaridan tamomila farqlanib turishini taminlaydi. Birinchi navbatda bu holat adabiy til masalasining tilshunoslikdagi eng murakkab masalalardan biri ekanligini ifoda etadi. Ayniqsa, adabiy tilning keng qamroviligidini bunga yaqqol misol sifatida ko`rsatish mumkin. Chunonchi, akademik F. Filin adabiy tilning ettita belgisini ko`rsatadi:

- 1) ishlanganlik;
 - 2) me'yorlashtirilganlik;
 - 3) stabillik (barqarorlik);
- ma'lum bir tilda so'zlashuvchi kollektiv (jamoa)ning
hammasi uchun umumiylilik va majburiylik;

¹ Головин Б. Общее языкознание. -М.:1979.

- 5) uslubiy bo`linganlik;
- 6) individuallik, ya`ni muomalaning turli toifalari-ishlab chiqarish, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot, fan, kundalik turmush sharoitidagi umumiylilik.
- 7) yozma va og`zaki shakllariga ega ekanligi.

Ana shu sifatlarning hammasi mavjud tilni adabiy til deyish uchun asos ham emas, chunki boshqa sifatlar ham bo`lishi mumkin. Ikkinchi tomondan, bu sifatlar turli davr adabiy tillarida turlicha bo`lishi ham mumkin. Masalan, yozma adabiyot mavjud bo`lmagan ayrim xalq tillarida bu sifatlardan ko`pi bo`lmasligi ham mumkin².

Akademik V. Vinogradov «adabiy tilni anglamoq qiyin»- degan xulosaga keladi. Chunki adabiy til hayotiy mavjudlikning zaruriy sharoitlaridan biri bo`lib, u jamiyat hayotining turli sohalariga xizmat qiladigan, o`zining boyligi ko`p vazifaviyligi, ishlanganligi, qa`tiy norma (me`yor)ga ega ekanligi bilan tilning boshqa shakllariga nisbatan eng ustun turadigan til shaklidir. Shunga ko`ra hozirga zamon tilshunosligida adabiy til o`zining keng qamrovlligi, ifoda vositalariga boyligi, aniq va ravonligi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon adabiy tilning umumxalq tilining boshqa ko`rinishlari bilan uzviy aloqadorlik kasb etishini belgilaydi. Xususan, hozirgi zamon tilshunosligida adabiy til va milliy til tushunchasi masalasi ko`ndalang turadi. Negaki, adabiy til va milliy til shakllanish nuqtai nazaridan o`zaro farqlanadi.

Milliy til va adabiy til masalasiga kelganda, bular boshqa-boshqa hodisalar ekanligi ma'lum bo`ladi. Tilning milliy formasi uning hayotiy formalaridan biri emas, adabiy til esa uning hayotiy shaklidir. Chunki milliy til ma'lum bir davr mahsuli, adabiy til esa undan oldin mavjud bo`lgan. Masalan, hozirgi o`zbek milliy tili umumxalq tilining eng yuqori ko`rinishi hisoblanib, u o`z tarixini bugungi kungacha etib kelgan eng qadimgi yozma yodgorliklar tilidan boshlagan bo`lsa, adabiy til esa hamma davrlar uchun bir xil bo`lmaydi, har bir davrning o`z adabiy til me`yorlari bo`ladi. Chunonchi, XV asr Navoiy davri eski o`zbek adabiy tili bilan hozirgi o`zbek adabiy tilining fonetik, grammatic me`yorlari orasida farqlar borligini yaqqol sezib turamiz. Ko`rinadiki, adabiy til va milliy til o`rtasidagi o`zaro bog`liq jihatlar, ularning umumiyl mushtaraklik xususiyatlari bilan birga farq qiluvchi jihatlari ham borligini ko`rsatadi. Shunday qilib, adabiy til umumxalq til ko`rinishlaridan farq qilib, u sayqallangan, me`yorlashtirilgan, grammatic qolipa asoslangan til shaklidir³.

Jonli so`zlashuv tili umumxalq til ko`rinishlaridan biri bo`lib, bir tomonlama adabiy so`zlashuv tili, ikkinchi tomonlama esa hududiy dialektlar xarakteriga ega bo`lgan til ko`rinishidir. Uning o`z xarakteri va terminlari mavjudligi masalasida E.

² Аврорин В. Проблемы изучения функциональный цороны языка.

³ Баскаков А. Сотсиально-экономические и этнолингвистические-русского двуязычие и Азербайджане. «Сотсиологические проблемы развивающихся иран». -М.: 1975, С. 273-274

Polivanov to`xtalib, jonli so`zlashuv tilining uch xil nomlanishi xususida fikr yuritadi. Bular:

- a) dialekt xarakteridagi so`zlashuv tili;
- b) oddiy so`zlashuv tili;
- c) adabiy so`zlashuv tili, - degan xulosaga keladi.

To`g`ri, bular turli xil ma'nolar ifodalaydi, biroq, har bir ifodaning anglatgan ma'nosi bir-biriga yaqin bo`ladi. Aytaylik, XIX asr oxiri XX asr boshlari o`zbek adabiy til xususiyatarini o`rganmoqchi bo`lsak, unda oddiy so`zlashuv tili hamda xududiy dialektlar o`rtasidagi munosabatlar farqlangan. Jonli so`zlashuv tili ifodasi boshqacha, ya'ni ko`p qirrali tushuncha hisoblanadi.

Birinchidan, jonli so`zlashuv umumxalq til ko`rinishlaridan biri bo`lib, xalq so`zlashuv tili va adabiy til imkoniyatlari asosida shakllanib boradi.

Ikkinchidan, jonli so`zlashuv tili imkoniyatlari chegaralangan bo`lib, adabiy til normalariga mos kelmaydi. Ko`rinadiki, jonli so`zlashuv tili adabiy til va uning normalariga mos kelishi va kelmasligi mumkin. Shunga ko`ra jonli so`zlashuv tili va adabiy til o`rtasidagi tafovutlarni aniq ko`rsatib o`tish lozim bo`ladi. O`z navbatida jonli so`zlashuv tilining quyidagi belgilari mavjud ekanligini aytib o`tish lozim.

- 1) ishlanmaganlik (neytral ma'no);
- 2) uslubiy bo`yoqqa ega emas, ya'ni uslubiy ma'no ifoda etmaslik;
- 3) ma'lum bir tilda so`zlashuvchi jamoaning hammasi uchun umumiylik va majburiylikka ega emaslik;
- 4) yozma shaklga ega emaslik; ko`p ma'nolilik vazifasini bajarmaslik, sinonim va variant usullariga ega emaslik.

Shu xususiyatlarning mavjud emasligiga qaramay, jonli so`zlashuv tili adabiy til taraqqiyotiga muhim xizmat qiluvchi til ko`rinishlaridan biridir. Xususan, badiiy asar tilida oddiy so`zlashuv til elementlari badiiy asarning muhim jihatlarini ochib beruvchi xususiyatlarga egadir.

Shunday qilib, oddiy so`zlashuv tili til normalariga amal qilgan holda milliy til tizimi taraqqiyotiga ijobjiy ta'sir etib boradi. Xulosa qilib aytganda, adabiy til va jonli so`zlashuv tili umumxalq til tizimidagi muhim ko`rinishlardan biri bo`lib, har qanday milliy til va uning ravnaqi hamda taraqqiyotida muhim o`rin tutadi. Xususan, adabiy til o`z til ichki imkoniyatlarini zamon ruhi asosida boyib, rivojlanib, takomillashib borishi uchun xizmat qilsa, jonli so`zlashuv tili mavjud tilning xalqchilligini, soddaligi va xalq uchun tushunarli bo`lishini ta'minlaydi. Bu, shubhasiz, ijtimoiy ma'no va mazmun kasb etadi.

Har bir xalq tilida og`zaki adabiy-so`zlashuv tilining paydo bo`lishi va shakllanishi bir qator murakkab faktorlar, ijtimoiy-siyosiy hamda lingvistik jarayonlar bilan bog'liqdir. Ma'lumki, har qanday til uchun asosiy va umumiyligi.

funksiya –bu kommunikativ funksiyadir. Tilning kommunikativ funksiyasi uning yashash formalaridan farqlidir. Tilning yashash formalari so'zlashuv-turmush tili uning territorial va ijtimoiy dialektal tarmoqlari, adabiy til va uning yozma hamda og'zaki shakllari, shevalar yuqorisida turuvchi koyne(наддиалектальное койне), xalqaro aloqa tili, biror bir e'zozlangan til, yordamchi sun'iy til, insoniyatning kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan umuminsoniy til va boshqalardir.

Tilning yashash formalari bajaruvchi kommunikativ funksiyalari muayyan tarixiy davrlarda o'ziga xos bo'lgan. Masalan, adabiy til dastlabki davrlarda, asosan, yozma til shaklida yuzaga kelganda o'sha formada xizmat qilgan. Shu tufayli ham tilshunos Yu.S.Sorokinning qayd etishicha, adabiy tilning dastlabki davrida uning og'zaki shakli kuchsiz bo'ladi, natijada kitobiy nutqni og'zaki nutqqa qarama-qarshi qo'yish tendensiyasi ham kuchli bo'ladi. Masalan, XVIII asr rus adabiy tili ichida adabiy –og'zaki nutq va uning umumiy normalari hali shakllanmagan bo'lgan, og'zaki tilda so'zlashuv-turmush tili va "oddiy nutq" elementlari kuchlilik qilgan. Ba'zi avtorlar adabiy til tarixini ikkiga:

- a) yozma - kitobiy va
- b) og'zaki-so'zlashuv nutqiga bo'ladi.

Ammo bu o'rinda tilning yozma va og'zaki shaklga bo'linishi yozma nutq va so'zlashuv nutqi bo'linishidan farqlanishi kerak⁴. Adabiy tilda yozma nutq birinchi shakllanuvchi komponent bo'lganligi tufayli, norma va nutq madaniyati masalalari ham dastlab yozma nutq doirasida olib boriladi. Adabiy til og'zaki shakli normalarining shakllanishi va tarqalishi qiyinligi adabiy tilning adabiy –so'zlashuv shakli normalarining yuzaga kelishidagi chigalliklarda ham yorqin ko'rindi.

Og'zaki-adabiy nutqning yuzaga kelishi aslida adabiy til og'zaki shaklning mahalliy shevalar ustidan hukmronligini, ulardan yuqori turuvchi normativ hodisaga ("нодиалентальная норма") aylanganini ko'rsatadi. Shu tufayli adabiy-og'zaki nutq, adabiy-so'zlashuv nutqining yuzaga kelishi shevalardan yuqori turuvchi normativ-adabiy vosita ("noddialektal norma yoki koyne")ning paydo bo'lganini ko'rsatadi. Shu tufayli ham adabiy tilning dialektlardan ustun turuvchi umumiyoq normasi yo'q davrlarda ushbu funksiyani boshqa bir yot til bajargan hollar ham bo'lgan. Masalan, nemis adabiy tili tarixida bunday vazifani lotin tili bajargan davrlar bo'lgan. Shuning uchun adabiy til o'zining milliy tilga aylanishi davrida o'zining yagona va umumiy normasini yuzaga keltirishga intiladi. Ammo milliy til shakllanishining ilk davrida adabiy tilning og'zaki-so'zlashuv nutqini yuzaga keltirish uchun yetarli ijtimoiy baza bo'lmaydi. So'zlashuv nutqini mohiyat e'tibori bilan adabiy tilning adabiy so'zlashuv ko'rinishi deb tan olishi har qanday adabiy tilning diaxronik va sinxronik holati bilan aloqador bo'lgan bir qator muammolarni tug'diradi.

⁴ Сарокин О.С. О Задачах русского литературного языка. Москва., 1976

Masalan, bunday muammolarni o'zbek adabiy tili uchun tadbiq qilinadigan bo'lsa tubandagi masalalarning ko'ndalang bo'lishi turgan gap:

1. O'zbek adabiy tili tarixda, ya'ni 1920-yilga qadar so'zlashuv shakliga ega bo'lganmi?
2. Agarda o'tmishda o'zbek adabiy tilining adabiy-so'zlashuv shakli bor bo'lgan bo'lsa, uning funksional doirasi qaysi darajada edi?
3. Bordi-yu, 1920-yilgacha o'zbek adabiy tilining adabiy so'zlashuv shakli bor bo'lmagan bo'lsa, 1920-yildan keyin qachon paydo bo'la boshladi?
4. Hozirda chin ma'noda, to'liq normalangan o'zbek adabiy-so'zlashuv nutqi bormi? Yoki ushbu shakl hali to'la shakllanib yetilmaganmi?

Uning tarqalish doirasi, adabiy-normativlik darajasi qaysi holatda?

Alisher Navoiy prozaik asarlarida XV asr o'zbek adabiy tilidagi neytral-normativ nutqning namunalari saqlangan va bizgacha yetib kelgan. Hozirgi adabiy-so'zlashuv nutqi, asosan, 1917-1920-yillardan keyin paydo bo'ldi va 30-40-yillar atrofida shakllana boshladi. Tarixda hozirgi ma'noda o'zbek adabiy-so'zlashuv nutqining bo'lmagani va bo'lishi mumkin emasligining ba'zi sabablari umumiyligi tarzda tubandagilar deyish mumkin:

1. Eski o'zbek adabiy tili va XIX asr oxirlaridagi adabiy til ham hozirgi O'zbekistonning butun territoriyasi bo'ylab bir xilda, keng tarqalmagan edi. Adabiy tildan keng xalq ommasi emas, asosan aholining kamchilik qismi hisoblanuvchi ziyorolar guruwigina foydalangan;
2. O'lkaning feodal tarqoqligi, umumiyligi territorial birlikning yo'qligi o'zbek adabiy tilining bir xilda va keng funksional rivojiga imkon bermas edi;
3. Aholining asosiy ko'pchiligi savodsiz va adabiy tilni egallash va undan bahramand bo'lish huquqidan mahrum edi;
4. O'zbek adabiy tilining og'zaki, jumladan so'zlashuv shakli elementlari kodifikasiyalanmagan edi. Buning uchun ilmiy-nazariy imkoniyat va amaliy ehtiyoj ham yo'q edi va boshqalar. Hozirda aholining deyarli ko'pchiligi o'zbek adabiy tilidan bahramand ekanligi, unda gaplashishi fakt. Bu o'zbek adabiy tili og'zaki shaklining demokratlashgan, ehtiyojlar doirasida kodifikasiyalanganidan darak beradi. Ammo shunga qaramasdan o'zbek adabiy tilining og'zaki shakli, ayniqsa uning adabiy – so'zlashuv ko'rinishi to'la shakllangan deyish qiyin. Chunki o'zbek adabiy so'zlashuv nutqi (hattoki ziyorolar, o'qituvchilar, o'quvchilar nutqida ham) mahalliy shevalar ta'siridan qutila olmagan adabiy tildir. To'g'rirog'i, adabiy til bilan mahalliy sheva elementlarining (ayniqsa, fonetika, leksika borasida) qorishig'idan iborat bir nutqdir. Ushbu nutqni atroflicha xarakterlash bir qator chuqr tadqiqotlarni talab etadi. Xullas, adabiy-so'zlashuv nutqi ko'p qirrali va murakab hodisadir. Afsuski, ba'zi tadqiqotchilar adabiy-so'zlashuv tilining adabiylik darajasiga juda qat'iy va yuqori talablarni qo'yadi.

Adabiy-so'zlashuv nutqi markaziy va mahalliy joylarda keng xalq ommasining fikrlash quroli sifatida xizmat qilar ekan, u ma'lum darajada, chegarali holda bo'lsa-

da, mahalliy shevalar bilan aloqaga kirishadi, natijada turli joylarda adabiy-so'zlashuv tilining ayrim o'zgachaliklar kasb etgan loqal ko'rinishlari yuzaga keladi. Bunday nutqda sheva ta'siri, ya'ni xususiyatlari astasekin sistemali-sinxronik xarakter oladi. Ammo shunga qaramasdan adabiy-so'zlashuv nutqi o'zining umumadabiylik belgisini saqlaydi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, sheva ta'sirida adabiy-so'zlashuv nutqi ko'proq fonetika va leksika sohasida ikkilanadi, bo'rttirib yuborishdan yuzaga kelgan. Adabiy-so'zlashuv nutq, o'zining funksional doirasi hamda normativ chegaralariga ko'ra adabiy tilga adabiylikka, og'zakilik belgilariga ko'ra esa mahalliy va sosial, dialektlarga yaqinlasha boradi. Adabiy-so'zlashuv tilining normativ va funksional xususiyatlarini nazariy rejada keng tadqiq qilish keng xalq ommasining kundalik so'zlashuv nutqiy madaniyatini ko'tarishda ulkan amaliy qimmatga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуазизов А.А. О составных частях когнитивной лингвистике // Хорижий филология, Тошкент. 2007, 3-сон. – С.5-7
2. Ахманова О., Магидова И.М. Прагматическая лингвистика, прагмалингвистика и лингвистическая прагматика. Вопросы языкоznания. М., 1978, №3, с.44.
3. Аврорин В. Проблемы изучения функциональный цороны языка
4. Баскаков А. Сотсиално-экономические и этнолингвистические-русского двуязычие и Азербайджане. «Сотсиологические проблемы развивающихся цран». –М.: 1975, С. 273-274
5. Бузаров В.В. Основы синтаксиса английской разговорной речи. - 2-е изд., перераб., доп. - М.: "Крон-Пресс", 1998. - 326 с.